

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA
MULTIMEDIA TEKNOLOIYALARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY – METODIK
ASOSLARI.**

Rashidova Dildora Mansur qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida ta'limg tarbiya jarayonida multimedia texnoloiyalaridan foydalanish asoslari, ularni matabga tayyorlov guruqlarida joriy etgan holda samarali ta'limg tarbiya berish metodikasini ishlab chiqish haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'limg, ta'limg jarayoni, kompyuter texnologiyalari, multimedia.

Maktabgacha ta'limg tashkilotlarida multimedia texnologiyasiga asoslangan kompyuterli ta'limg asosiy maqsadlaridan birinchisi bolalarni matab ta'limga tayyorlashdan iborat. Shuning uchun ta'limg tarbiya shakli, mazmuni, o'tkazish metodikasi va baho mezonini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, ba'zi MTTlar kompyuterlar bilan ta'minlangan bo'lsa-da, ulardan ta'limg jarayonida foydalanish metodikasi ishlab chiqilmaganligi sababli qimmatbaho o'yinchoq sifatida turibdi. Shuning uchun, MTTlari sharoitida kompyuterdan ta'limg tarbiya jarayonida foydalanish metodikasini ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ta'limg tarbiya jarayoni mobaynida multimedia texnologiyasidan foydalanilganda u yoki bu materialni o'rganishda vaqtini tejash hisobiga ta'limg mazmuni chuqurlashtiriladi va kengaytiriladi.

MTTlarining maktabga tayyorlov guruqlarida multimedia texnologiyasidan foydalanish, asosan, uch tomonlama amalga oshiriladi:

- 1) kompyuter va uning dasturlari yordamida didaktik vositalar (slayd, taqdimot, elektron ishlanma, qo'llanma va h.z.) tayyorlanadi hamda internet va masofali ta'limg ashyolaridan foydalaniladi.
- 2) kompyuter ishtirokida bevosita dialog metodi asosida bolalarga yangi material o'rgatiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, 6-7 yoshli bola talaba va o'quvchilar kabi kompyuterda mustaqil ishlashga qodir emaslar. Shuning uchun, MTTlarida yangi materialni o'rganishda bevosita dialog metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu holda kompyuter didaktik vosita manbai rolini o'ynaydi.
- 3) Bilvosita dialog – virtual axborot (ta'limg) muhitida kompyuter bilan dialog asosida multimedia texnologiyasi amalga oshiriladi. Bunda bolalar tomonidan material mustaqil o'rganiladi, o'tilgan material mustaqil takrorlanadi, mashqlar mustaqil bajariladi, multimediali kompyuter o'yinlar mustaqil amalga oshiriladi va bola mashqlarni, kompyuter qo'ygan vazifalarni, o'yinlarni takror-takror bajarib, qo'yilgan mashq'ulot maqsadiga erisha oladi. Bu holda multimedia texnologiyasidan foydalanilganda kompyuter ta'limg manbai rolini o'ynaydi.

MTTlarda ta'limg tarbiya jarayoni yangi materialni o'rgatishga (yoki mustahkamlashga) qaratilgan, tekshiruvchi-sinovchi, majmuaviy sayohatl yoki ekskursiya va kompyuterli o'yin shakllariga bo'linadi. MTTlarida o'tkaziladigan ta'limg tarbiya jarayoni maktabga tayyorlov guruqlarida kompyuterdan foydalanib o'tkazilishni hisobga olib, 30 daqiqaga mo'ljallanadi

va asosiy uchta bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqich 15 daqiqa davom etadi. Bu vaqt davomida tarbiyalanuvchilarga asosiy ma'lumot beriladi. Birinchi bosqich tugagach (15 daqiqadan so'ng) tarbiyalanuvchilarning kompyuterlardan foydalanishlari 15 daqiqadan oshmasligini hisobga olib, 15-20 daqiqali oraliq (dam olish bosqich) o'tkaziladi. Ushbu 15-20 daqiqali oraliqda o'rganiladigan material bo'yicha qiziqarli o'yinlar o'tkaziladi, she'rlar, ashulalar aytildi, rasm chizdiriladi, A harfini yoki 1 raqamini qog'ozda yozish o'rgatiladi. So'ngra ta'lim-tarbiya jarayonining uchinchi bosqichi boshlanadi. Bu bosqichning davomiyligi ham 15 daqiqadan iborat bo'ladi. Bu bosqichda, asosan, birinchi bosqichda o'rganilgan materiallar mustahkamlanadi, tarbiyalanuvchilarning kompyuter savodxonligini oshirish davom etadi va ularning bilimi baholanadi. Agar, birinchi bosqichda rejalashtirilgan materiallarning to'la o'rganilishi ulgurilmasa, u 3-bosqichda davom ettirilishi mumkin.

Multimedia texnologiyasidan foydalanib o'tkaziladigan ta'lim-tarbiya jarayoni kompyuter texnologiyasiga asoslanadi. Yangi materialni multimediali kompyuter asosida o'rganishdagi mashg'ulotning algoritmi:

1. Tarbiyachi(pedagog) bolalarni kompyuter ro'parasiga joylashtiradi.
2. Kompyuter xotirasiga joylashtirilgan materiallarni monitor ekraniga chiqaradi.
3. Bolalarning diqqati ekranga chiqqan materialga qaratiladi.
4. Tarbiyachi va bolalar o'rtaida dialog (savol-javob) boshlanadi.
5. Bolalar tarbiyachi (pedagog) bergen topshiriqni mustaqil bajaradi.
6. O'rganilgan material mustahkamlanadi.
7. Bolalarning ta'lim-tarbiya jarayoni davomida olgan bilimi baholanadi.
8. O'rganilgan material bo'yicha uyga topshiriq beriladi.

Virtual axborot muhitida kompyuter bilan (bilvosita) dialog metodining algortmi:

1. Bola dasturda ko'rsatilgan tugmachalardan topshiriqqa mosini tanlaydi.
2. Kompyuter bola (tarbiyalanuvchi)ga – topshiriq, savol, mashqni bajarish yoki o'yinni bajarishni buyuradi.
3. Bola (tarbiyalanuvchi) topshiriqni bajaradi.
4. Kompyuter topshiriq bajarilishining to'g'ri yoki noto'g'riliгини bildiradi.
5. Noto'g'ri bo'lsa, takroriy bajartiradi.
6. Kompyuter bolaning bilimini baholaydi.

Kompyuterda ishlovchi bola mashqlarni va kompyuter qo'ygan vazifalarni, o'yinlarni takror-takror bajarib, maqsadiga erisha oladi. Ammo bolalar kompyuterda mustaqil ishlagan hollarda ham ularning harakatlari doimo tarbiyachi nazoratida bo'ladi.

Multimediali kompyuter texnologiyasining ta'lim-tarbiya berish metodikasini bayon qilishdan oldin uning quyidagi ikki jihatiga e'tibor berish kerak:

1) agar u yoki bu multimedia vositasi tarbiyalanuvchilarga bayon etib borilmasdan namoyish etilsa, u oddiy multfilm bo'lib qoladi.

2) agar tarbiyachi multimedia vositasini namoyish etish davomida uni tahlil etib (tushuntirib, bayon etib) borsa, ta'lim jarayonini aks ettirib, multimedia texnologiyasiga aylanadi.

Shuning uchun, MTTlar sharoitida kompyuterlardan ta'lim-tarbiya jarayoniga foydalanish metodikasini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Agar MTMDagi kompyuterlar soni 5-6 dan ortiq bo'lsa, ta'lim-tarbiya jarayoni frontal ravishda, bitta bo'lsa, undan navbatma-navbat foydalanilgan holda o'tkaziladi. MTT bolalarining yoshiga va ta'lim dasturiga mosligi e'tiborga olingan holda MTTlarining maktabga tayyorlov guruhlari o'quv rejasiga "Informatika fanidan elementar tasavvurlarni berish" yo'nalishini kiritish va tarbiyalanuvchilarning boshlag'ich kompyuter savodxonligini shakllantirish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdukodirov L. A., Begmatova N. X, "Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti" (o'quv uslubiy qo'llanma). - Qarshi: Nasaf, 2011. - 257 b.
2. Abdullayeva S." 6 - 7 yoshli bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasini aniqlashda test usulid an foydalanish" // Maktabgacha ta'lim. -2002. №1. - B. 10 - 12.
3. Adilova S. Multimedia va ularni t a'lim jarayonida qo'llash. // Pedagogik ta'lim , 2001. № 2. - B. 20 - 21.
4. www.pedagog.uz
5. www.ziyonet.uz
6. www.edu.uz